



**IIB AKADEMIYASI KURSANTLARINING MAXSUS JISMONIY
TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA QO'L JANGINING O'RNI**

Xojiyev Nodir Maxmudjonovich

O'zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi

Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bugungi kunda IIB tizimida olib borilayotgan samarali islohotlar, qabul qilingan qonunlar, IIB Akademiyasi kursantlarining bu boradagi jismoniy tayyorgarligi masalalari hamda sohaning yetuk kadrlarini tayyorlashda maxsus o'quv-mashg'ulotlari, yakkakurash turlaridan bo'lgan qo'l jangi pozitsiyalari haqida atroflicha fikr yuritiladi. Qolaversa, kursantlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda o'quv-taktik mashg'ulotlarning ahamiyati borasida takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: IIB Akademiyasi, hodimlar, o'quv-mashg'uloti, jismoniy tayyorgarlik, yakkakurash, qo'l jangi, tayyorgarlik tizimi, taktika.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishdek buyuk maqsad sari keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinyotgani taraqqiyot uchun keng yo‘l ochmoqda. Olib borilayotgan barcha islohotlarning zahirida yurtimizni har tomonlama rivojlantirib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta‘minlash, huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda ularni rozi qilish maqsadi turibdi. Shu jihatdan Ichki ishlar organlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ham keng ko'lamli natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [1]da natijasi o'laroq, soha hodimlarini tayyorlash va ularni jismoniy va jangovar jihatdan yetuk kadrlar bo'lib yetishishda ilg'or o'qitish texnologiyalari olg'a surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi – O‘zbekiston Respublikasi ijroiya



hokimiyati organi hisoblanib, o'z vakolatlari doirasida fuqaro va inson erkinligi va huquqlarini himoyalashda davlat boshqaruvini amalga oshiradigan, huquq-tartibotni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va bevosita O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari va Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq etish bo'yicha bugungi kunga kelib 90 dan ziyod normativ-huquqiy, 200 ga yaqin idoraviy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentabrdagi 447-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining 1994-yil 20-oktyabrdagi 264-sonli buyrug'i asosida qayta tashkil etilgan bo'lib, Ichki ishlar vazirligi tizimiga kiradi [2].

Ichki ishlar organlarining har bir sohasida samarali faoliyat olib borishga qaratilgan o'zgarishlar qilinyotgani, ularning vazifalari aniq belgilab, xodimlarning shaxsiy javobgarligi oshirilyotgayotgani soha xodimlariga yana bir karra mas'uliyat yuklaydi.. Shu bilan bir qatorda xodimlarga qulay ish sharoitlari yaratilib, ularni ijtimoiy qo'llabquvvatlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilyapti. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlariga asosiy kadrlarni tayyorlab beradigan ta'lim dargohi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida ham har tomonlama salohiyatli kursantlarni jamiyatga yetishtirib berish yo'lida o'quv jarayonlari samarali tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi Markaziy Osiyoda huquqni muhofaza qilish organlari uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha eng yirik oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan ushbu dargoh bugunga qadar o'z sohasining mutaxassisi bo'lgan kadrlarni yerishtirib berib kelmoqda.

Akademiyada o'quv-tarbiya jarayoni va xizmat olib borishni o'quv bo'limi, tarbiyaviy ishlar bo'limi, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, saf qismi va shtab tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot ishlarini Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashdagi dolzarb masalalar loyihasi tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi. Akademiya oliy ta'limning asosiy va qo'shimcha kasbiy o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, o'quv-metodik, ilmiy va boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi ixtisoslashgan davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi[2]



Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida: akademiya-dagi ta'lim tizimi kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratiladi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o'qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshiriladi;[3]

Professional ichki ishlar organi xodimi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mukammal bajarishi, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jamiyatda qonun ustuvorligi hamda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda nafaqat kasbiy, balki jangovar va jismoniy jihatdan ham chiniqishi kerak. Chunki ichki ishlar organi xodimi xizmat faoliyati davomida turli ekstremal holatlarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatda u davlat va jamiyat xavfsizligi bilan birga, o'z xavfsizligini ham ta'minlashi, buning uchun zarur maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022 yil 22 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkillashtirish to'g'risida"gi buyrug'i talablari asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda soha xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shaxsiy tarkibning jismoniy va jangovar shayligini oshirish, maxsus-taktik va saf tayyorgarligi, o'qotar qurollarni qo'llash va undan foydalanish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, turli nostandart vaziyatlarda huquqbuzar yoki jinoyatchiga nisbatan jangovar-jismoniy usullarni qo'llashda faoliyatning uslubiy jihatlarini takomillashtirish zarur.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik salomatlikni mustahkamlashga, harakat qila bilish va malakalarni keng doirada o'zlashtirib olishga, asosiy harakat sifatini rivojlantirishga, keyingi maxsus tayyorgarlikni tezroq o'zlashtirib olishga qaratilgan. Umumiy jismoniy tayyorgarlik maqsadida, jismoniy tarbiyaning xilma-xil manbalaridan: jismoniy mashqlar, tabiatdagi tabiiy sog'lomlashtirish kuchlaridan va gigiyenik faktorlardan foydalaniladi. Professional jismoniy tayyorgarlik esa jismoniy tarbiyaning maxsus jarayonidir, ya'ni kursantlarni aniq mehnat turiga va



mudofaa faoliyatiga tayyorlashdan iborat. Bu yerda faqat. professionallikka qaratilgan jismoniy mashqlar berib boriladi. Umumiy va professional jismoniy tayyorgarlikni bir-biridan ajratish shartlidir, chunki ular bir-birini o‘zaro to‘ldirishga, kengaytirishga, boyitishga qaratilgan. Jismoniy tayyorgarlik o‘z navbatida takomillashuvning o‘ziga xos poydevori, texnik-taktik tayyorgarlik sportchining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda talabalarning kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus amaliy jismoniy tayyorgarlik tadbirlari bilan ham qurollantirish uqtirilgan.

O‘zbek jang san’ati milliy sportimizning qadimiy va navqiron turlaridan biri bo‘lib, yakkakurash ajdodlarning qo‘l jangi san’ati, kurash, yetti tirsak kabi bellashuv usullariga ega mukammal harakatlar mujassamlashgan sport turi hisoblanadi. Shuningdek ular boshqa sport turlariga nisbatan ruhiy va ma’naviy yetuklikni jismonan barkamollikni talab qiladi. Yakkakurash turlarida yosh sportchilarni texnik va taktik tayyorgarliklari bilan bir qatorda jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish muhim jarayondir. Yakkakurash sport turlarining vazifasi professional jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishdan iborat. U o‘z turlarining har xilligi hamda boyligi bilan xarakterlanadi. Har qanday harakat-faoliyatlarni, umumiy professional tayyorgarlikni keng ta’minlash uchun xizmat qiladi. Yakkakurash sport turi bilan shug‘ullanish, keyingi jismoniy takomillashuvga yo‘l ochadi.

Qo‘l jangi – bu jang san’ati va sport turi bo‘lib, unda raqiblar qo‘llaridan foydalanib bir-biriga qarshi kurash olib boradilar. Jang san’atining bir turi bo‘lgan qo‘l jangi nafaqat jismoniy kuch, balki tezlik, texnika va strategiyani ham talab qiladi. Ushbu sport turi quyidagi maqsadlarda shug‘ullanishni taqozo etadi:

- a) sovuq (oq) qurollardan faol foydalanish va o‘q otish bilan yaqin janglar (kengroq ma’noda harbiy harakatlar turi sifatida);
- b) o‘qotar qurol ishlatmasgan yoki umuman qurolsiz jang (shu ma’noda bu sport ma’nosida jang emas; jangchining maqsadi qisqa vaqt ichida dushmani yo‘q qilish, jangovar topshiriqni bajarish va buyruqni amalga oshirgan holda);
- c) jang yoki qurolsiz jangda pichoqli qurollardan foydalanishni o‘rganuvchi harbiy-amaliy ilmiy va akademik fan;



d) huquqni muhofaza qilish organlarining harbiy xizmatchilari uchun tayyorgarlik tizimining bir qismi sifatida qaraladigan jang san'ati.

Qo'l jangi avvallari quolsiz janglar (qo'l bilan va oyoq bilan zarbalar, otishlar, og'riqli zarbalar) nayzali kurashning bir qismi hisoblangan va nayza texnikasini o'rganish bilan solishtirganda kamroq ahamiyatga ega bo'lgan. Alohida-alohida, maxsus vazifalarni bajarish uchun pichoq bilan jang qilish san'ati o'rgatilgan.

IIB kursantlari qo'l jangi —yakka kurashning turli ko'rinishlari, (qo'l bilan, oyoq bilan bosh bilan zarba berish texnikasi. og'riqli usullar), usullari va amalga oshirish taribini o'z ichiga olgan, himoya va hujum texnikalarini o'rgatuvchi universal sistemadir. Asosiy tayorgarlik vositalari:

-umumrivojlantiruvchi mashqlar (umumiy xarakat ko'nikmalarini va tajribalarni shakllantirish maqsadida);

-xarakatli o'yinlar va o'yinli mashqlar;

-akrobatika elementlari (umboloq oshish, matda mashq bajarish.);

- sakrash va sakrash mashqlari;

- yengil snaryadlarni uloqtirish;

- kuch mashqlari

IIB kursantlari mashg'ulotlari sistemasi o'z ichiga quyidagi to'rt bo'limni oladi:

1) Tayorgarlik usullari;

2) Hujum usullari;

3) Himoya usullari;

4) Maxsus usul va xarakatlar.

Tayorgarlik usullari quyidagilardan iborat:

1) Holat (Turish – front o'quv, front jangovar, yonbosh; hamda janga tayorlanish – quolsis, qurol bilan, kichik lopatka va pichoq bilan).

2) xarakatlanish (yurish, sakrash, yugurish).

3) o'zini himoya qilish usullari (oldinga, orqaga, yelka orqali umboloq oshish; oldinga, orqaga va yonga yiqilish). Qo'l bilan zarba berish texnikasi.

Qo'l bilan zarba berish kaft-yelka oldi-yelka-tananing uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi va tananing o'z oqi atrofida aylanishi hisobiga amalga oshiriladi, bu esa kuchli zarba berish imkonini yaratadi. To'g'ridan berilgan zarbalar – qo'ni to'g'ri chiziq bo'ylab yo'naltirish hisobiga beriladi — tananing siltanishi, o'z o'qi atrofida



aylanishi orqali amalga oshiriladi. Bunda kaft hujum holatiga o'tadi va yakuniy bosqichda qo'l zarba berish holatiga o'tkaziladi. O'quv-shug'ullanish bellashuvida kurashchi xujum usulari, kontrxujum usulari, himoya usullarini har tomonlama takomillashtiradi. U turli jangovor vaziyatlarda bo'lishga intilishi va ulardan to'g'ri chiqib keta olishi kerak, harakatlarni turli holatlardan turib bajara olishi, turli raqiblar bilan bellashuv o'tkazayotganida taktik g'oyalar va manyovrlarni amalga oshirishga mashq qila olishi kerak. Agar kurashchilarning himoyani takomillashtirishga maxsus vazifasi bo'lmasa, ular usul va kontrusullarni bajarishlari zarur, hamda imkoniyat qadar keskin vaziyatlarni yaratib, xujum ,kontrxujumlarni o'tkazishda ulardan foydalanishlari kerak. Agar o'quv-shug'ullanish bellashuvi vaqtida o'tkazilgan usul natijasida kurashchilardan biri gilamga nisbatan orqasi bilan bo'lsa, u ko'prikcha holatida turishi kerak, xujum qilayotgan esa uni oxirigacha bosish uchun to'g'ri yakuniy holatni egallashi lozim. Qo'l jangi jangovar sport turi sifatida 1980-yillarning oxiridan boshlab Rossiyada turli darajadagi sport qo'l jangi bo'yicha idoralararo va idoralardan tashqari musobaqalar o'tkazilib kelinmoqda. 1986-yildan beri Rossiyada Butunrossiya qo'l jangi federatsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Rossiyada hozirgi vaqtda Rossiya armiyasi qo'l jangi federatsiyasi, Xalqaro qo'l jangi federatsiyasi, Butunrossiya sport qo'l jangi federatsiyasi, shuningdek, bir nechta Rossiya qo'l jangi federatsiyasi faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda Akademiya kursantlariga kasbiy va jangovar-jismoniy ko'nikmalarini shakllantirish, nostandart vaziyatlarda umumiy va maxsus chidamlilik, kuch va tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodlari, bu borada xorijiy davlatlar politsiya tizimida qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berilmoqda. Akademiyadagi Harbiy tayyorgarlik kafedrasida qoshidagi o'q otish tiri hamda Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasida o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida to'pponchadan o'q otish, qo'l jangi, sambo va jangovar sambo hamda shaxsiy himoyalanish usullarini qo'llash bo'yicha zarur o'quv-metodik hamda amaliy ko'nikmalar shakllantirilmoqda. Kursantlarning jismoniy sifatlari va jangovar qobiliyatini shakllantirish bo'yicha maxsus o'quv-mashg'ulotlari olib borilyapti. Bu borada



kursantlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik masalalari muhim o‘rin tutishini e’tirof etish zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/3159827>
2. O'zbekiston ovozi. 2021-yil 12-may, chorshanba. – №18 (32.660). 4-varoq
3. <https://lex.uz/acts/-5377619>. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI. ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN PROFESSIONAL KADRLARNI TAYYORLASHNING SIFAT JIHATIDAN YANGI TIZIMINI JORIY ETISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA
4. A.Xaydarov, B.To‘xtanazarov, S.Abduezimov. Jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish va olib borish bo‘yicha qo‘llanma. 2020-yil Toshkent.
5. Азизов Н.К. Белбоғли Туркистон кураши, - Т., “Ўқитувчи”, 1998.
6. Атаев А.Қ. – Кураш. (Ўсмирлар ва ёшларнинг курашга ўргатишнинг методикаси ва воситалари).-Тошкент,2004.
7. Алиханов И.И., Шахмурадов Ю.А. Тактика вольной борьбы. В сб. «Спортивная борьба», М., ФиС, 1985.
8. Алиханов И.И. Техника и тактика вольной борьбы. М, ФиС, 1986.
9. Анохин П.К. Опережающее отражение действительности. Вопросы философии. 1962, №7.
10. Балдаев К.В. Содержание и методика преподавания базовой техники вольной борьбы в институтах физической культуры. Канд.дисс. М., 1989.